



O'ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK

VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

AGRONOMIYA FAKULTYETI

O'SIMLIKSHUNOSLIK KAFYEDRASI

5620200 – AGRONOMIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABASI

USMONOV XUSNIDDINNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: «Sug'oriladigan yerlarda arpa hosildorligiga agrotexnik
tadbirlarning ta'sirini o'rganish»**

Ilmiy rahbar, q.-x.f.n., dosent

D.S.Normurodov

Ish ko'rib chiqildi
va himoyaga qo'yildi
(- yig'ilish)
kafedra mudiri, professor
_____ N.Xalilov
«_____» _____ 2014 yil

Agronomiya fakultyeti
dekani, dotsent
_____ D.S.Normurodov
«_____» _____ 2014 yil

SAMARQAND – 2014

Mundarija

Kirish	
1.Adabiyotlar sharhi.....	
1.1. Ekish muddatlarining arpa hosildorligiga ta'siri.....	
1.2. Arpaning sistematikasi, morfologik, biologik xususiyatlari.....	
1.3. Arpaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ekish muddatlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari va ularning tahlili.....	
2.O'zbekistonda rayonlashtirilgan va keng tarqalgan arpa navlari.....	
3. Arpa yetishtirish tyexnologiyasi.....	
4. I.A.KARIMOVNING MAMLAKATNI MODERNIZASIYA QILISH, KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA USTUVOR VAZIFALARI	
5.JAHON MOLIYAVIY – IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI.....	
6.HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	
7. O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
Internyet ma'lumotlari	

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin sug'oriladigan yerlarda boshoqli don ekinlar ekiladigan maydonlar ko'paytirildi. Sug'oriladigan yerlarda boshoqli don ekinlari ekiladigan maydonlarning asosiy qismini kuzgi bug'doy tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doy bilan bir qatorda kuzgi arpani ekish ham muhim ahamiyatga ega. Kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan 10-15 kun oldin pishib yetiladi. Kuzgi arpa O'zbekiston sharoitida jazirama garmsyel boshlanguncha pishib yetiladi hamda tuproq qurg'oqchiligidan kam zararlanadi. Kuzgi, qishki, bahordagi namliklardan yaxshi foydalanadi.

Boshoqli don ekinlarini hosilini o'rib – yanchib olishda mavjud kombaynlardan samarali foydalanishda kuzgi arpaning ahamiyati katta. Hosilni eng maqbul muddatda o'rib – yanchib olmaslik natijasida hosil nobudgarchiligi ko'p hollarda 20-30% yetishi mumkin.

Dastlab yerta pishib yetilgan arpa hosilini, keyin kuzgi bug'doyni ertapishar navlarini keyin o'rta va keychapishar navlar hosilini o'rib – yanchib olish, boshoqli don ekinlarini hosilini nobudgarchiligini oldini oladi.

Kuzgi arpa hosilidan bo'shagan maydonlarga makkajo'xoridan 70-80 s/ga, tariq, marjumak, mosh, loviya, soyadan 15-20 s/ga don hosili olish mumkin. SHuniyengdyek, kuzgi arpa hosilidan keyin sabzavot ekinlari, kartoshka, pomidor ekib yuqori hosil olish mumkin.

O'zbekiston respublikasida arpa sug'oriladigan va lalmiyeor yerlarda yetishtiriladigan asosiy oziqa ekinlaridan biridir. Uning doni oziq – ovqat, yem – xashak, texnikaviy mahsulotlarda ishlatiladi. Pivo va oziq – ovqat sanoatida arpa doni qimmatbaho xom – ashyo, chorvachilikda konsyentrat yem hisoblanadi. So'nggi yillarda arpani oraliq ekin, sidyerat eyein shuningdyek, manikorm chun yetishtirish kyeng qo'llanilmoqda. Ko'p yillik dukkakli o'simliklarni o'stirishd uni qoplama ekin sifatida yetishtirishni ahamiyati katta.

Mamlakatimizda o'sib borayotgan aholini oziq – ovqat, chorvachilikni yem – xashak bilan ta'minlashda arpaning ahamiyati ortib boradi.

Jahon dyehqonchiligida arpa yetakchi don yekinlaridan biridir. FAO ma'lumotlari bo'yicha (2004 yil) dunyoda arpa ekiladigan yalpi ekin maydoni 2001 yilda 54,9 mln.ga, 2004 yilda 55,6 mln ga, 2001 yilda 143,4 mln tonna yalpi hosil, 2004 yilda 153,5 mln tonna, hosildorligi 2001 yilda 24s/ga, 2004 yilda 27,6s/ga gani tashkil etgan. So'nggi yillarda ekin maydoni yalpi hosil va hosildorlikni oshib borishi kuzatilgan. Arpadan turli maqsadlarda foydalaniladi. Uning donidan un, arpa va pyeryelovka yormasi, kofye suragati tayyorlanadi. Uning uni sifatli non yopishi uchun yoriqsiz bo'lganligi uchun javdar yoki bug'doy uniga 20-25 % qo'shib ishlatiladi.

Arpaning doni, somoni bug'doy, javdar, suli singari donli ekinlarnikidan oziqa sifimda qimmatligi yuqori. Oqsil tarkibida 20 ta aminokislota saqlanadi va ulardan 8 tasi almashtirilmaydigan aminokislotalardir.

Kuzgi arpa bug'doy, javdar, tritikalye, suliga nisbatan qurg'oqchilikka, issiqlikka, sho'rga chidamliroq. SHuning uchun ayrim mintaqalarda arpa, javdar v suliga nisbatan ko'p hosil byeradi.

Hozirgi paytda O'zbyekiston Ryepublikasida arpaning po'stli, bahori duvarak, kuzgi navlari sug'oriladigan hamda lalmikor yerlarda ekish uchun tavsiya etilgan va Davlat ryestriga kiritilgan – Ayqor (biologik kuzgi), Bolg'ali (biologik kuzgi), Gulnoz (biologik kuzgi), Qizil qo'rg'on, Mavlono(biologik kuzgi), Xonaqoh (paralyellum 59, biologik kuzgi), Fyeruz – 3 sug'oriladigan, lalmikor(biologik kuzgi), va duvarak navlar Tyemur duvarak (biologik bahori), navi sug'oriladigan, lalmikor (biologik kuzgi,) Nutans 799 (biologik bahorgi), Sovruq (biologik kuzgi), lalmikorlikda Unumli arpa (biologik bag'ori) navlari ekish uchun tavsiya etilgan. Unumli arpa va Gulnoz navlar ikki qatorli pivobop arpa hisoblanadi.

Sug'oriladigan yerlarda Davlat ryeyestriga kritilgan navlar potyensial hosildorligi 60-70 s/ga yetadi. Arpaning biologik potyensialidan to'la foydalanilmayapti. Buning asosiy sababi navlarning biologik xususiyatlariga, mintaqaning tuproq – iqlim sharoitiga mos, ilmiy asoslangan yetishtirish tyexnologiyalarining yo'qligidir. Ilmiy asoslangan yetishtirish tyexnologiyasini

qo'llab chorvachilik uchun asosiy oziqa ekini kuzgi arpa hosildorligini oshirish don yetishtirishni ko'paytirishdagi katta imkoniyatlardan biridir.

G'allachilik yanada rivojlanishi, ishlab chiqarishga joriy etishi sug'oriladigan yerlarda ularning nav agrotexnikasini shu jumladan ekish muddatlari ma'lum tuproq – iqlim sharoitida o'rganishni taqozo etadi.

Shuning uchun sug'oriladigan yerlarda kuzgi arpa yetishtirish texnologiyasining arpa mahsuldorligi, hosildorligini oshirishga yo'naltirilgan asosiy usullari ekish muddati, mye'yoprlari va ularning o'zaro ta'sirini ilmiy asoslash g'allachilikdagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

1.1. Ekish muddatlarining arpa hosildorligiga ta'siri

Sug'oriladigan yerlarda kuzgi arpaning Davlat ryeyestriga kiritilgan navlarni ilmiy asoslangan yetishtirish tyexnologiyasi ishlab chiqilmagan. SHuning uchun xo'jaliklar kuzgi arpadan bug'doyga nisbatan kam hosil olishmoqda. Kuzgi arpaning potyensial hosildorligi 80-90 s/ga yetadi. Ammo xo'jaliklarda optimal ekish muddatlari va mye'yorlarini bilmasligi tufayli turli mye'yorlarda va muddatlarda ekishmoqda. Natijada hosildorlik 30-35 s/ga dan oshmayapti. SHuning uchun biz kuzgi arpaning Mavlonov va Tyemur navlarini optimal ekish muddatlari va mye'yorlarini aniqlash maqsadida dala tajribalarni o'tkaza olgan. (N.Xalilov, Q.Xo'jamqulov 2004 y)

Tajriba paykalchalarida o'tkazilgan kuzatishlar ekish muddatlari va mye'yorlari urug'larni dala unuvchanligiga syezilarli ta'sir etishini ko'rsatdi. Unib chiqish fazasida 1m² maydonchada hisoblangan o'simliklar soni, unib chiqish to'laligi (foiz hisobida) ekish muddatlarini 1 oktyabrdan 11 noyabrgacha kyechnikishi bilan pasayishi kuzatildi. SHuningdyek ekish mye'yorlarini oshib borishi bilan urug'larni dala unuvchanligini kamayib borishi qonuniyati aniqlandi. Ekish muddatlarini kyechnikishi bilan urug'larni dala unuvchanligini pasayishi havo harorati bilan bog'liq. Havo harorati yuqori bo'lgan davr 1 oktyabrda ekilganda, maysalar urug'lar ekilgandan kyeyin 6-7 kundan, 21 oktyabrda ekilganda 8-9 kundan, 11 noyabrda ekilganda 15-20 kundan kyeyin hosil bo'ldi. Eki unib chiqish davrining davomiyligi bo'yicha farqlar yillar bo'yicha ham kuzatildi. (N.Xalilov, Q.Xo'jamqulov 2004 y)

Kyech 11 oktyabrda ekilgan paykalchalarda erta 1 oktyabrda ekilgan paykalchalardagi nisbatan o'simliklarni rivojlanishi tyezlashgani va o'suv davrining 8-10 kunga qisqarishi aniqlandi.

Olingan ma'lumotlarning ko'rsatishicha ekish muddatlarini 1 oktyabrdan 11 noyabrgacha kyechnikishi bilan kuzgi arpa o'simligining bo'yi past bo'lib borishi aniqlandi. SHuningdyek har bir ekish muddatlarida ekish mye'yorlarini 3,0 mln unuvchan urug'dan 5,0 mln uruqqacha oshirilishi bilan o'simlikning bo'yi ham

oshib bordi, ammo ekish mye'yori 6,0 mln unuvchan urug' bo'lganda o'simlikning bo'yi oshmaganligi aksincha 5,0 mln unuvchan uruqqa nisbatan oz bo'lsada kamayganligi kuzatildi. 1 oktyabrda ekilgan paykalchalarda ekish mye'yori 3,0 mln unuvchan urug'/ga bo'lganda Tyemur navini bo'yi 92,7; Mavlono naviniki 90,8, ekish mye'yori 5,0 mln unuvchan urug' bo'lganda bu ko'rsatkichlar muvofiq holda 98,8; 95,4 sm bo'lishi aniqlandi. Tuplanish fazasiga ekish mye'yori 3,0 urug'/ga bo'lgan o'simliklar baquvat bo'lib rivojlanadi, zich ekilgan paykallardagi o'simliklar tuplanish fazasidan boshlab siyrak ekilgan paykalchalardagi o'simliklarga nisbatan tyez o'sdi hamda ularni bo'yi baland bo'ldi, yotib qolishga chidamliligi pasaydi. SHunday qonuniyatlar boshqa ekish muddatlari va mye'yorlarida ham kuzatildi. (N.Xalilov, Q.Xo'jamqulov 2004 y)

Tajriba natijalarini ko'rsatishicha, biologik kuzgi nav Mavlono duvarak Tyemur navi nisbatan qishga chidamli ekan. SHuning uchun o'simliklar qishlash davomida erta (1 oktyabr), kyech (11 noyabr) ekilganda ham Mavlono navida 1m² saqlangan o'simliklar Tyemur navinikiga nisbatan ko'p bo'ladi.

Kuzgi arpa 1 oktyabrda ekilganda Tyemur navida eng yuqori hosil 3,0 mln. Unuvchan urug'/ga ekilganda -62,0 s/ga, Mavlono navi 4,0 mln unuvchan urug'/ga ekilganda 65,4 s/ga olindi. Tyemur navini tuplanish koeffitsiyenti yuqori bo'ldi. Ekish mye'yorlarini yana oshirish o'simliklarni yotib qolishga chidamliligini pasayishiga, un shudring kasalligi bilan ko'p zararlanishiga olib kyeldi. (N.Xalilov, Q.Xo'jamqulov 2004 y)

Kuzgi arpa uchun eng maqbul ekish muddati 20 oktyabr ekanligi aniqlandi. Tyemur navi 20 oktyabrda ekilganda eng yuqori hosil, ekish mye'yori 4,0 mln, unuvchan urug' bo'lganda -67,1 s/ga hosil olindi. Eng maqbul ekish muddatida Tyemur navi yaxshi qishlab chiqdi, mye'yorida tuplandi va Mavlono navi nisbatan 5,4 s/ga ko'p don hosili byerdi. Tyemur navi ekish muddatiga juda ta'sirchan ekanligi aniqlandi.

Kyech, 11 noyabrda ekilgan paykallarda eng yuqori hosil har ikkala nav bo'yicha ham ekish mye'yori 6,0 mln, unuvchan urug' bo'lganda kuzatildi. Ekish

mye'yorlarini oshib borishi bilan hosildorlik ham oshib bordi. Tyemur navidan 6,0 mln, unuvchan urug' ekilganda 64,5 s/ga, Mavlono navidan 65,9 s/ga don hosili olindi. Ekish mye'yorini kamaytirish don hosilini kamayishiga olib kyeldi.

Biomyetrik o'lchovlarni ko'rsatishicha ekish mye'yorlarini oshib borishi bilan bitta o'simlikni barg yuzasi, vazni, boshqoq uzunligi, 1000 ta don vazni kamayib boradi. Ammo ekinlarda fotosintetik potentsial (FP), barg yuzasi, quruq moddani to'planishi oshishi kuzatildi.

YUqorida kyeltirilgan ma'lumotlardan kyelib chiqqan holda qo'yidagi xulosani qilish mumkin. Zarafshon vodiysining tipik buz tuproqlari sharoitida kuzgi arpani eng maqbul ekish muddati 20 oktyabr, erta (1 oktyabr) yoki kyechno (11 noyabr)da ekish don hosilini pasaytiradi, eng maqbul ekish mye'yori Tyemur navi uchun 4,0 mln. Mavlono navi uchun 5,0 mln. Unuvchan urug'/ga. Kyechno 11 noyabrda ekilganda ekish mye'yori 6,0 mln unuvchan urug'/ga yoki navlarga muvofiq holda eng maqbul ekish muddatidagiga nisbatan ekish mye'yorini 17; 34 % oshirish, kyechno ekish natijasida yuzaga kyeladigan hosildorlikni kyeskin pasayishini qisman kamaytiradi.

Arpa eng qadimiy donli ekinlardan biri bo'lib, arxeologik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston hududida eramizdan 2 ming yil avval ham ekilgan. O'rta Osiyo, jumladan mamlakatimiz arpaning ayrim turlari uchun birlamchi markaz hisoblanadi va asrlar davomida ularning asosiy biologik xususiyatlari hamda morfologik belgilar mahaliy sharoitlarda shakllangan.

Ryepublikamizda kyeng tarqalgan arpa turlaridan biri H.SPONTANEUM C. KOCH bo'lib, tabiatda yovvoyi holda ko'p uchraydi va madaniy arpa turlarining eng yaqin ajdodi hisoblanadi. Uning ertapisharliligi, qurg'oqchilikka, issiqqa, kasalliklarga chidamliligi bu turdan birlamchi matyerial sifatida syelyeksiyada foydalanish imkonini byeradi. SHularni e'tiborga olib, H.SPONTANEUM C. KOCH ning o'sish hududlari va sharoitlarini, unga abiotik omillarning ta'sirini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

SHu maqsadda O'zbyekiston O'simlikshunoslik ilmiy- tadqiqot instituti olimlari tomonidan 2005-2008 yillarda Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, surxondaryo, Navoiy viloyatlarida kuzatishlar olib borildi.

Bu tur hamma joyda: dyengiz sathidan 298 m. dan (Qashqadaryo viloyati Urgut tumani) balandlikda uchraydi. U tyekislik, tog' etagi, adirlar, baland tyepaliklarda o'sadi, lyekin 1400- 1500 m. dan yuqori balandlikda kamroq tarqalgan.

Evolyusiya jarayonida arpa mahalliy, tuproq- iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan bo'lib, myexanik tarkibi har xil bo'lgan bo'z tuproqlarda o'sadi. Namlik yetarli bo'lsa toshli tuproqlarda ham rivojlanib, yaxshi unumdorlikka ega bo'ladi. Ko'pincha yo'l yoqalari, bog'- rog'larda, madaniy o'simliklar bilan birga byegona o't sifatida, ayniqsa donli, dukkakli, moyli o'simliklar orasida uchraydi. H.SPONTANEUM C. KOCH ertapishar bo'lganligi uchun asosiy ekinlardan ilgari pishadi va boshog'ining mo'rtligi (tyez sinib kyetishi) tufayli shu dalaning o'zida tyez tarqaladi. Agar pichan o'rimi vaqtli boshlansa yoki o'simliklar hayvonlar tamonidan yeyilib kyetilsa, tuplanish tugunidan yangi poyalar o'sib chiqadi. Ular tyez rivojlanib, lyekin bu jarayon takrorlansa, o'simliklar nobud bo'ldi va ayrim populyasiyalar yo'qotildi.

Bu viloyatlar hududida yovvoyi arpa turlari uchun sharoitlar juda qulay bo'lib, issiqlik bilan ta'minlanish darajasi juda yuqori. 5°S dan bo'lgan o'rtacha sutkalik harorat yig'indisi 4240-6440o ni tashkil etadi va tog'li hududlarda ham arpaning pishib yetilishi uchun havo harorati yetarli hisoblanadi. Bizning kuzatishimizcha, tog'li hududlarda vyegyetsiya davrining o'tishi ancha kyechn boshlanadi va tyekislik hududlari bilan solishtirilganda bir oy farq qiladi.

Bu hududlarda arpaning qishlashi uchun hamma sharoitlar qulaydir. Kyechn bahor va erta kuz ayozlaridan shikastlanishi qayd etilmagan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, arpaning yovvoyi turlari mahaliy sharoitlariga yaxshi moslashgan bo'lishiga qaramasdan unga abiotik omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Unumdor, nam bilan ta'minlangan joylarda arpa populyasiyasining holati yaxshi bo'lib, poyasining bo'yi 90-95 sm gacha yetadi. Bunday sharoitlar tyekislikda, tog' oldi va tog'li hududlarda ham uchraydi.

G'allaorol tumanining Oltinboshq (768 m), Urgut tumanining Mingarcha (1500 m) va Baxryein (950 m) Baxmal tumanining Aldashman (1709), Oltinsoy tumanining Marmin (678 m), Karlik (707 m), Boysun tumanining Xo'jabulog'i (911 m), Oqjar (1059 m) qishloqlari atrofida shunday sharoitlar mavjud. Bu yerdagi o'simliklarning poyalanishi ham yuqori va boshqadagi donlar soni ko'p.

Adabiyotlarda agoranomlar foydalanish uchun hozirgacha, qaysi vaqtlarda ekish mye'yorlarini ko'paytirish yoki kamaytirishni, tuproq unumdorliklariga sug'oriladigan va lalmikor joylarda ekish usullari ko'chat qalinligi va siyrak holda ekish usullari, mye'yorlari o'rganish o'rniga hozirgacha eski usullarda ekib kyelinmoqda dyeb ta'kidlaydi (M.S. Saviskiy 1771 y).

Muqobil muddatlarda ekib ko'chat olishlik birdan – bir yuqori hosil olish garavidir. Biologik navlar bunda asosiy o'rin egallab quyosh enyergisining ta'siri, yog'ingarchilik miqdori va o'z muddatlarda ekishga bog'liq holda hosil olinadi. M.S. Saviskiy (1977y) qator yillar mobaynida olib borgan tajribalaridan malumki ekish normasi muqobil muddatlarda ekilishi hosilning ortishiga olib kyeladi. YA'ni 1925 yil syelyeksionyer V.YA.YUriyevning yozishicha, barcha navlar o'zining muqobil o'sishi ekish mye'yori va oziqlanish maydoni bilan biologik jihatdan bir – biridan farq qiladi.

A.K.Oniskov va boshqalar o'z tajribalarida (1980) shimoliy Qozog'istonda bir nyecha navlarning ekinbobliligini va mye'yorini o'rganadi. ularning aytishicha 2,5 mln unuvchan urug'lar 1 gyektarga ekilishi mye'yori turi kyelib yaxshi hosil byergan.

Dalada yaxshi hosil olish uchun ekish mye'yori kam bo'lganda tup soni, sifati va boshqalarining kattaligi, oziqlanish maydoni ham katta bo'lgan dyeb hisoblaydi. I.G. Kaltunov (1973y) bir gyektarga ekish mye'yori shuni ko'rsatdiki ekish muddati o'tishida 6,0 mln unuvchan urug'lar tup soni miqdori

ko'p bo'lishi ta'sirida saqlanib qolgan ko'chatlar soni hisobiga ham hosil oshadi.

A.A.Nichiparovich va boshqalar (1961y) ta'kidlashicha ko'chat olish faqatgina yuqori sifat dyegani emas balki barg sathining fotosintyetik koeffisyentining ortib borishi bilan barobar bo'yining o'sib borishi kyerak ekan.

Muqobil ekish muddatidan o'n kunga erta yoki kyeck ekilganda Xarkov viloyatidagi (Gubanov va boshqalar 1967 y) o'z tajribalarida gyektaridan 6,0 s/ga Maldoviyaning markaziy mintaqasida (Makyuk 1960 y) 2-3 s/ga, Kiyev viloyatidagi sharoitida (Ryemyeslo 1966 y) 7,7-8,0 s/ga har bir gyektaridan qo'shimcha hosili kamayganligi kuzatgan.

T.D. Bisavoy va G.N. CHapovyekiylar (1980 y) yillarda o'z tajribalaridan kyelib chiqqan holda ekish normasining ortib borishi bilan 1000 don hajmiy og'irligi kamayganligi kuzatgan.

O.Goloniskaya (1975 yilda) V. I. Kochurka (1998), A.V. Karpova va A.I. CHirkov (1980 y) ko'rsatmasi bo'yicha ekish normasining oshib borishi bilan boshhoqdagi don soni ham kamayib boradi.

S.Park (1977 y) Kanadagi arpaning 20 ta navini oddiy eni 17,4 sm, uyalab turt burchakli, shakillarda 30 x 30 va 45x45 smda ekib ekish mye'yorini ortib borish bilan 1000 dona don og'irligi va booq shakllanishiningt kamayib borishi haqida aytgan.

I.S.Saviskiy (1971) Davlat nav sinovlarining ko'p yillik ma'lumotlarini umumlashtirib, don ekinlarini ekish mye'yorlari dyeyarli hamma joyda kamligini va uni ko'paytirish zarurligini qayd etgan.

V.V.Lixochvor (2000) don ekinlari xo'jaliklarda oshirilgan, katta mye'yorlarda ekilayotganligini va bu holat dyehqonchilik madaniyatini, urug'larni dala unuvchanligini pastligi va tuplanishni kamligi tufayli yuzaga kyelganligini qayd etadi.

Ekish mye'yori yetarli bo'lmaganda donli ekinlarning tup qalinligi va hosildorligi ekish mye'yorlarining ko'payishi bilan bir vaqtda ortib boradi,

optimal ekish mye'yorida poyalarning eng maqbul tup qalinligi va shu ekish hamda navning eng yuqori hosili shakllanadi, ekish mye'yor ko'p bo'lganda, mahsuldor poyalarning oshib borishiga nisbatan, yorug'lik, bo'ladi, natijada hosilning pasayishi kuzatiladi.

Taniqli syelyeksionyer olim V.YA.YUryev 1925 yilda "har bir nav o'zining o'ziga xos optimal tup qalinligiga va bu tup qalinligi yoki oziqlanish maydoni o'simlikning bir qator biologik xususiyatlari bilan bog'liq"dyeb ta'kidlagan (Sinyagin, 1975).

Kuzgi arpaning ekish mye'yorlari mintaqaning tuproq – iqlim sharoiti, urug'lik matyerialning sifati, ekish usuli va muddatlari, o'g'itlash, sug'orish va ekiladigan navlarning biologik xususiyatlariga bog'liq holda byelgilanadi. O'stirish sharoitlarini barchasi bir xil bo'lganda ertapishar navlar kyechnpishar navlarga nisbatan katta mye'yorlarda ekiladi. Ertapishar navlar kam tuplanadi, fotosintyez mahsulotlarini kyechnpishar navlarga nisbatan kam hosil qiladi va kyechnpishar hamda tyezpishar navlar bir xil mye'yorda ekilganda tyezpishar navlar hosili kam bo'ladi (Fyedarov 1973; Zavardan, 1980; Posipanov1997, Qurbanov 2004).

Ekish mye'yorlari o'simliklarning xususiyatlariga ham syezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHuningdyek, o'simliklarning tuplanishi ekish mye'yorlariga ta'sir ko'rsatadi va uni o'zgartirishga asos bo'ladi.

Boshqoli don ekinlarida tuplanishning ahamiyati haqida adabiyotlarda yagona fikr yo'q. P.N. Konstantinov, A.I. Nosatovskiy, P.P.Lukyanyenko va boshqa tadqiqotchilar tuplanishni ijobiy ko'rsatkich dyeb hisoblashmaydi, ayniqsa qurg'oqchilik hosil bo'lishiga ko'p suv va oziqa moddalar sarflanganligi uchun ular bilan bosh poyani ta'minlanishi yomonlashadi dyeb hisoblashadi. SHu bilan birgalikda ikkilamchi poyalardagi hosil bosh poyada ham olingan donning o'rnini qoplay olmaydi. Qurg'oqchilik mintaqalarda bahori boshqoli don ekinlari uchun eng maqbul 1-2 tonna hosil qiluvchi o'simliklardir dyeb hisoblashadi.

V.R.Vilyams, V.Ye. Pisyerov, S.A.Muravyev, YA.V.Gubanov va boshqalar o'simliklar yaxshi tuplansa, barg yuzasining oshib borishi bilan ko'p miqdorda organik moddalar tuplanadi va ular donni shakllanishida foydalaniladi dyeb

hisoblashadi. Qulay sharoitda yon shoxlar don hosilini 30-50 % siyraklashishgan ekinzorda 60-70 % ni byeradi. Ammo kuchli tuplanish sug'oriladigan va nam bilan yaxshi ta'minlangan mintaqalarda o'simliklarni yotibqolishiga hamda hosildorlik va don sifatini pasayishiga olib kyelishi mumkin.

D.N.Pryanishnikov ekiladigan urug'lar soni, daladagi o'simliklarni tup qalinligini uzil – kyesil aniqlab byermasligini, sababi, qalin yoki siyrak ekinzorlar tuplanish darajasi tufayli tyenglashishini, siyrak o'simliklarni kuchli tuplanishini va poyalar sonini ko'paytirishini hamda poyalar qalinligini zich ekilgan ekinzorga tyenglashtirishi ko'rsatgan. Ammo, dala sharoitida odatda optimal yoki unga yaqin, tajribalarda aniqlangan tup qalinligi hosil qilishga to'g'ri kyeladi (I.I.Sinyagin, 1975).

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari va mahsuldor tuplanishi o'simliklarning tup qalinligiga bog'liq ekanligi aniqlangan (Osin, Samushev, 1978; Boyarshinova, 1980; Makarova, Dubovoy, 1980).

Siyrak ekilganda tuplanish oshgan, qalin ekilganda kamaygan.

M.Tojiyev (2004) tadqiqotlarida O'zPITI ning Surxondaryo tarmog'i sug'oriladigan dalalarida o'tkazilgan tajribalarda 16 oktyabrda ekilgan arpaning bo'yi Bolg'ali, Oyqor, mavlono navlarida muvofiq, hamda 107.3; 108.5; 115,9 sm tashkil qilgan. Bolg'ali 205 kunda, Oyqor, Mavlono navlari 212 kunda pishib yetilgan. Mavlono navida bir boshoq va boshoqdagi don vazni 2,0-2,27 g, boshoqdagi don soni 52,7 ta ni, Bolg'ali navida bu ko'rsatkichlar muvofiq holda 1,01-1,22 g; 29,9 dona bo'lishi aniqlangan va Mavlono navini yotib qolishga moyilligi ta'kidlangan. Donning chiqishi Bolg'ali va Mavlono navlaridan 46,7-507% bo'lgan.

2. Arpaning sistyematikasi, morfologik, biologik xususiyatlari.

Kuzgi arpa Markaziy Osiyo mamlakatlari, shu jumladan O'zbyekistonda ko'p ekiladi. U asosan yem-xashak va yorma ekini sifatida yetishtiriladi. Donida oqsil miqdori kam, shuning uchun pivo sanoati uchun yaxshi xom ashyo.

Kuzgi arpaning qishga chidamliligi kuzgi bug'doy va kuzgi javdarnikidan past. SHuning uchun uning ekilish mintaqalari chyeklangan.

O'zbyekistonda kuzgi arpa oraliq ekin sifatida oziqa uchun ham yetishtiriladi. Kuzgi arpani monokorm sifatida yetishtirish yem-xashak yetishtirishni ko'paytirishda katta ahamiyatga ega. Sug'oriladigan yerlarda kuzgi arpa byeda uchun qoplama ekin sifatida ham ekiladi. Qishi yumshoq mintaqalarda kuzgi arpa tarqalgan. Uning asosiy ekin maydonlari Markaziy Osiyo, Kavkaz orti, Ukraina, Rossiyaning va Qozog'istonning janubida, Yevropa mamlakatlarida joylashgan. O'zbyekistonda ko'p yillar kuzgi va bahori arpa ekin maydonlari dyeyarli tyeng bo'lgan, hozirda sug'oriladigan yerlarda asosan kuzgi arpa kyeng tarqalgan, bahori arpa ko'pincha qoplama ekin sifatida byeda bilan ekiladi.

Kuzgi arpa bahori arpaga nisbatan ikki baravar syerhosil, ammo qishga chidamliligi pastligi bahori arpa o'rniga ham kuzgi arpa ekish imkoniyatini chyeklaydi.

Kuzgi arpa kuzgi bug'doy, javdar, tritikalyega nisbatan erta, O'zbyekiston sharoitida jazirama issiqlar, garmsyel boshlanguncha yetiladi. SHuning uchun tuproq va havo qurg'oqchiligidan kam zararlanadi. Kuzgi, qishki, bahordagi namliklardan yaxshi foydalanadi.

Doni yirik, tarkibida oqsil miqdori kam bo'lganligi tufayli kuzgi arpa eng yaxshi pivobop don byeradi. Poxoli, somonining oziqaviy qimmatini yuqori, 100 kg somonida 33 oziqa birligi saqlanadi.

Bahori arpa muhim oziq-ovqat, yem-xashak va tyexnikaviy ekin. Uning donidan arpa yormasi, pyerlovka, un tayyorlanadi. Arpa unini 20-25% bug'doy yoki javdar uniga qo'shib non tayyorlashda ishlatish mumkin.

Donida o'rtacha 12% oqsil, 5,5 % klyeykovina, 64,6% azotsiz ekstraktlanadigan moddalar, 2,1 % yog', 13 % suv, 2,8 % kul bor.

Bahori arpa cho'chqalar, otlar uchun yaxshi konsyentrat yem. Uning 1 kg donida 1,2 kg oziqa birligi bor. Bu ekin pivo va spirt sanoatining asosiy xomashyosi. Pivo tayyorlash uchun, ayniqsa, ikki qatorli, to'la, yirik donli, po'stligi kam (8-10%), unib chiqish enyergiyasi yuqori (95 %). 4-kun o'stirilganda arpa eng yaxshi xomashyo hisoblanadi.

Arpa eng qadimiy ekin. Arxeologik topilmalarning ko'rsatishicha arpa bug'doy bilan bir qatorda tosh davridan byeri ekilib kyelinmoqda. Misrda 5 ming yil muqaddam arpa yetishtirilgan. Xitoy, Italiya, Gyermaniyada ham eramizdan oldin arpa o'stirilganligi ma'lum.

Hozirgi O'zbyekiston hududida arpa 4-5 ming yil muqaddam sug'oriladigan dyehqonchilikda yetishtirilgan.

Arpa juda tyezpishar va moslanuvchan ekin. Uni Pomirning 3000 m balandligida, Uzoq SHimolda, Markaziy Osiyoning tog'li mintaqalarida barqaror hosil byeradigan ekin sifatida yetishtiriladi.

Bahori arpa dunyo dyehqonchiligida 55,6 mln gyektar maydonni egallaydi, hosildorligi 38 s/ga, yalpi hosil 153,5 mln. tonnani tashkil etgan. O'zbyekistonda bahori arpa byeda bilan qoplama ekin va toza holda ekiladi. U sug'oriladigan yerlarda doni va ko'k massasi uchun ham yetishtiriladi.

O'zbyekistonda bahori arpa lalmikor va sug'oriladigan yerlarda 20 ming ga maydonga ekiladi. Yetishtiriladigan arpani MHM da uch guruhga bo'lish mumkin. 1) SHimoliy – oziq-ovqat arpasi. 2) Janubiy – yem-xashak va eksport arpasi, 3) G'arbiy – pivo arpasi. Bunday bo'linish juda nisbiy, sababi arpa yetishtiriladigan mintaqalarda arpa doni turli maqsadlarda foydalanilishi mumkin. Ammo pivobop arpa G'arbiy mintaqalarda yetishtirilganda don tarkibida oqsil kam, uglyevodlar ko'p bo'lib, ayniqsa oqsili yuqori molyekulyar oqsillarga kiradi.

O'zbyekistonda lalmikorlikda bahori arpa 4-7 s/ga suvlikda 35-40 s/ga hosil byeradi. Ilg'or xo'jaliklarda, suvlikda arpa hosili 65-70 s/ga yetadi.

Botanik ta'rifi. Hordeum L. avlodiga kiruvchi H. sativum madaniy arpa uchta kyenja turdagi madaniy arpalarni o'z ichiga oladi. (H. vulgare, H. distichon, H. intermedium L.). Arpaning juda ko'p bir yillik, ko'p yillik yovvoyi turlari ham

Hordeum L. avlodiga mansub. Boshq bo'g'inidagi myeva hosil qiladigan boshqchalari soniga qarab arpa quyidagi kyenja turlarga bo'linadi:


1. *H. vulgare L.* – ko'p qatorli yoki oddiy arpa. Boshqning har bir bo'g'inida uchtdan myeva hosil qiluvchi boshqchalar joylashgan va ularning hammasi rivojlanib don hosil qiladi.

Boshqning zichligi bo'yicha ko'p qatorli arpa ikkita guruhga bo'linadi. Birinchisi – to'g'ri olti qatorli (olti qirrali) boshq'i zich, yo'g'on, nisbatan kalta va ko'ndalang kyesimi to'g'ri olti qirra hosil qiladi. Ikkinchisi – noto'g'ri olti qatorli, to'rt qirrali guruhidagi arpalar boshq'i zichligi kam, don qatorlari to'g'ri joylashgan, yon boshqchalari bir-biriga kirib boradi, o'rtadagi boshqcha yonidagilarga nisbatan yaxshiroq rivojlangan, boshqlari yuza tomoni kyeng va ikki tor tomoni yonida joylashgan, ko'ndalang kyesimi to'rt burchakni hosil qiladi.

2. *H. distichon L.* – ikki qatorli arpa, unda boshq bo'g'inidagi uchta boshqchadan, faqat o'rtadagisi myeva hosil qiladi, yonidagi boshqchalar myeva hosil qilmaydi. Ikki qatorli arpalar don hosil qilmaydigan yon boshqchalar xususiyatiga, tuzilishiga qarab ikki guruhga bo'linadi: a) ***nutantia*** unda don hosil qilmagan boshqchalarda boshqcha va gul qipidlari saqlanib qoladi. b) ***dificientia***, don hosil qilmaydigan boshqchalarida faqat boshqcha qipidlari bor. Amaliyotda ikki qatorli arpaning faqat ***nutantia*** guruhi tarqalgan, ikkinchi guruhi Kavkaz ortida arpazorlarda uchraydi.

3. *H. intermedium L.* – oraliq arpa. Arpaning bu kyenja turida boshq o'qining har bir bo'g'inida mye'yorida rivojlangan bittadan uchtagacha don bo'ladi.

O'zbyekistonda faqat ko'p qatorli va ikki qatorli arpa kyenja turlari tarqalgan.



1-rasm. Arpa. 1, 2-o'simlikni unib chiqish fazasi va donning to'lish davri;
 3, 4- ikki qatorli arpaning boshog'i va uning ko'ndalang kyesimi; 5- boshog
 o'qining bo'g'inidagi boshogqchalar; 6-donlar, po'stli va yalang'och; 7, 8, 9, 10-
 ko'p qatorli arpaning boshog'i, boshog'ining ko'ndalang kyesimi, boshog o'qi
 bo'g'inida boshogqchalarning joylashishi, 11-qiltiqlari o'zgargan boshog (furali);
 12-silliqlik va shishli qiltiqlar qismlari

Ko'p qatorli arpa ikki qatorlisiga nisbatan tyez pishar va qurg'oqchilikka chidamli.

Har bir kyenja tur tur xillariga bo'linadi va ularda quyidagi byelgilar asos qilib olinadi: qiltiqligi (qiltiqli, qiltiqsiz, qiltiq qoldig'i bor), qiltiq xususiyati (tishli yoki silliq), boshqoq rangi, don rangi (sariq yoki qora), don po'stiligi (po'stli yoki yalang'och), boshqoq zichligi (zich bo'lsa boshqoqning 4 sm uzunligida 15-18 bo'g'inch, siyrak bo'lsa 7-14 bo'g'inch bo'ladi).

O'zbyekistonda arpaning 20 yaqin tur xillari uchraydi. Eng ko'p tarqalgan ko'p qatorli arpadan pallidium, ikki qatorlidan nutans. Bu tur xillardan boshqa qiltiqsiz yoki furqat arpalar **trifurcatum** (boshqoq'i ko'p qatorli, sariq, doni yalang'och) e'tiborga loyiq. Ammo bu tur xildagi arpa navlari, hosildorligi past, tashqi noqulay ob-havo sharoitiga chidamsizligi uchun ekilmaydi.

Arpa doni kyeng ikki tomoni kyesilgan. Sulidan farq qilib arpa donlari gul qipidlari bilan qo'shib o'sgan. Ikki qatorli arpaning po'stligi 9-11 %, ko'p qatorliniki 10-13 %. Ko'p qatorli arpa turli kattalikda bo'lib, ikki yon tomonidagi donlar mayda va asos qismi egilgan (qiyshiq).

Arpaning biologik xususiyatlari. Kuzgi arpa urug'lari 1-2 °S haroratda una boshlaydi. Urug'larning unib chiqishi uchun optimal harorat 15-20 °S. Tuplanish fazasida 12-14 °S sovuqqa bardosh byeradi. Qor qoplami bo'lmaganda, o'simliklar tuplana olishga ulgurmaganda -7-8 °S sovuq ham kuzgi arpa uchun xavfli. O'zbyekistonda biologik kuzgi, bahori hamda ikki faslli (duvarak) navlar kuzda ekiladi. Ammo eng qishga chidamlisi biologik kuzgi navlar, kyeyin duvarak navlar hisoblanadi. Bahori arpa navlarining qishga chidamliligi past. Sug'oriladigan yerlarda qish tushguncha yaxshi tuplanib ildiz otgan o'simliklar O'zbyekiston sharoitida yaxshi qishlab chiqadi.

Namlikka talabi. Kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan qurg'oqchilikka, issiqlikka chidamli. SHuning uchun bahorikorlikda kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan ko'pincha yuqori hosil byeradi. Namga eng talabchan davri naychalashdan boshqoqlashgacha. Sug'orishga talabchan, o'suv davrida tuproqda

chyeklangan dala nam sig'imi (CHDNS) 70 % kam bo'lmaganda yuqori hosil byeradi.

YOrug'likka talabi. Kuzgi arpa uzun kun o'simligi. Qisqa yorug'lik kunida uning boshq tortishi kyechnikib, kyeck yetiladi. Yarovizasiya davri 0-2 °S, 40-45 kun. Tyezpishar, kuzgi bug'doyga nisbatan O'zbyekiston sharoitida 10-15 kun erta yetiladi. O'zbyekiston sharoitida kuzgi arpa may oyining birinchi yarmidan (Surxandaryoda) boshlab iyun oyining birinchi o'n kunligiga qadar pishib yetiladi. Bu xususiyati sug'oriladigan yerlarda ikki hosil yetishtirishga imkon byeradi.

Tuproqqa talabi. Kuzgi arpa kuzgi bug'doyga nisbatan sho'rga, sho'rxokka ancha chidamli. Uni sizot suvlar yaqin joylashgan tuproqlarda ham yetishtirish mumkin. Unumdor, g'ovak, strukturali tuproqlarda yuqori hosil byeradi. Myexanik tarkibi og'ir, loy, botqoqlashgan, juda sho'rlangan yerlar kuzgi arpa uchun yaroqsiz. Tuproq muhiti pH 6-7 bo'lishi arpa uchun maqbul.

Oziqa moddalarga talabi. Sug'oriladigan yerlarda yetishtirilganda kuzgi arpa oziqa moddalarga ayniqsa azotga talabchan.

1.3. Arpaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ekish muddatlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari va ularning tahlili

Urug'larning dala unuvchanligi, o'simliklarning rivojlanishi

Kuzda ekilgan arpa navidan yukori xosil yetishtirishda eng optimal kalinlikdagi, soglom maysalarni ustirib olish asosiy agrotexnik tadbirlardan biri xisoblanadi. Uruglarni dala unuvchanligi, laboratoriya sharoitidagi unuvchanlikdan ancha kam bulishi ma'lum. Uruglarning dala unuvchanligi uruglarning sifatiga, agrotexnikaga, tuproq – iqlim sharoitlariga, urug'lar, maysalarning kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishiga, xamda boshqa xar xil omillarga boglik buladi.

Uruglarning dala unuvchanligining pasayishining asosiy sabablari turlicha omillarga boglik bulishi bir kancha olimlar tomonidan kursatilgan. Bu sabablar utmishdosh ekinlarni notugri tanlash, uruglarni ekish chukurligini notugri byelgilash, uruglik sifatini pastligi, tuprokdagi namlik va xaroratni yetishmasligi va xar xil kasalliklardan iborat bulishi mumkin Kyeche yoki juda erta muddatlarda ekilgan kuzgi arpa uruglari unuvchanligi optimal muddatlarda ekilgandagiga nisbatan ancha kam bulgan.

Ilmiy tajribalarda xam ekish optimal muddatdan erta yoki kyeche utkazilganda, uruglarni dala unuvchanligini pasayganligi aniklandi.

**Kuzgi arpa urug'larining dala unuvchanligiga ekish mudalarining
ta'siri**

Ekish muddatlari	Ekilgan urug' soni, dona	1 m.kv. unib chiqqan urug'lar soni, dona	Urug'larning dala unuvchanligi, %	1kv. m. da qishlab chiqqan o'simliklar soni, dona	Qishlab chiqqan o'simliklar, %	Hosilni yig'ishtir saqlangan o'simlikl
						1 m.kv., dona
15 syentyabr	400	352	88,0	302	85.7	205
1 oktyabr	400	363	90,7	315	86.7	215
16 oktyabr	400	370	92,5	325	87.8	225
1 noyabr	400	345	86,2	290	84	192

Kuzgi arpa urug'lari ning dala unuvchanligi ekish muddatlariga bog'liq holda o'zgardi. 1 m² dagi o'simliklar soni hisoblanganda erta 15.09 ekilganda 352 ta o'simlik unib chiqdi yoki dala unuvchanlik 88 % ni tashkil qildi. Ekish muddatlarining kyechigib borishi bilan urug'larning dala unuvchanligi ham kamayib bordi. 1.10 da 1 m² da 363 dona o'simlik paydo bo'lsa, 1.11 da bu kursatkich 345 donani yoki 86,2 %ni tashkil qildi. Ekish muddatlarigga bog'liq holda 1 m² da unib chiqqan o'simliklar soni 352 dan 345 donagacha o'zgardi, dala unuvchanligi foiz hisobida 86,2 dan 92,5 % gacha o'zgardi.

Qishlab chiqqan o'simliklar soni unib chiqqan o'simliklar soniga nisbatan taqqoslaganda ularni kamayishi kuzatildi. 15.09 da ekilganda 1 m² da o'simlik 1 marta sanaldi. Bu unib chiqqan o'simliklarga nisbatan 85,7 % ni tashkil qildi. 16.10 da ekilgan paykalchalarda qishlab chiqqan o'simliklar soni eng yuqori bo'ldi va 1 m² da 325 donani tashkil etdi.(87,8%)

Ekish muddatini kyechikishi bilan o'simliklarning qishga chidamligi ham pasaydi. Kuzgi arpa 1.11 ekilganda 1 m² da 290 dona o'simlik qishlab chiqqanligi aniqlandi, bu 84 % ni tashkil qildi. Ekish muddati erta 15.09 da yoki kyech 1.11 da bo'lganda kuzgi arpaning qishga chidamliligi pasayishi aniqlandi.

Hosilni yig'ishtirishdan oldin 1 m² da o'simliklar soni sanalganda ekish muddatlariga bog'liq holda 225 dan 190 donagacha o'zgshardi. Eng yuqori hosilni yig'ishtirishgacha saqlangan o'simliklar 16.10 ekilgan paykalchalarda bo'lishi aniqlandi.

2- jadval

O'sish rivojlanishi.

Kuzgi arpaning rivojlanishi fazalarinig ekish muddatlariga bog'liqligi

Ekish muddatlari	Unib chiqish	tuplanish	naychalash	boshoqlash	gullash	Pishish			O'suv davri
						sut	mum	to'la	
15 syentyabr	21.09	2.10	1.03	25.04	28.04	10.05	1.06	5.06	
1 oktyabr	7.10	20.10	5.03	28.04	1.05	13.05	5.06	9.06	
16 oktyabr	24.10	9.11	7.03	2.05	5.05	15.05	7.06	11.06	
1 noyabr	12.11	2.12	9.03	5.05	8.05	18.05	10.06	13.06	

Kuzi arpaning rivojlanish fazalarining davomiyligi ekish muddatlariga bog'liq holda syezilarli darajada o'zgardi (2- jadval). Ekish erta 15.09 da o'tkazilganda xarorot yuqoriligi tufayli urug'lar 6 kunda unib chiqdi. Ekish muddatlarining kyechnikishi bilan urug'larning ekish unib chiqish davri kyechnikdi. 16.10 da ekilgan paykalchalarda urug'larni unib chiqishi uchun 8 kun kyerak bo'ldi, 1.11 da ekilganda bu davr 11 kunni tashkil qildi. Tuplanish fazasi unib chiqqandan hisoblaganda 12-18 kunda byelgilandi. Erta muddatda 15.09 da ekilganda tuplanish fazasi 2.10 da, 1.10 da ekilganda 20.10 da, 1.11 da ekilganda 2.12 da byelgilandi.

Naychalash fazasi ekish muddatlariga bog'liq holda 1 martdan 9 martgacha bo'lishi byelgilandi. Bahorga kyelib rivojlanish fazalridagi farqlar ekish muddatlariga bog'liq holda kamayishi aniqlandi. Boshqalash 15.09 da ekilganda 25.04 da, 1.10 da ekilganda 28.04 da, 16.10 da ekilganda 2.05 da byelgilandi. Arpaning gullashi boshqalash fazasidan kyeyin 2-3 kunda boshlandi. Sut pishish fazasi ekish muddatlariga bog'liq holda 18.05 gacha byelgilandi. Mum pishish fazasi 1.06 dan 10.06 gacha byelgilandi. To'la pishish fazasi 5.06 dan 13.06 gacha byelgilandi.

Xosildorlik

Qo'llanilgan agrotexniklar tadbirlar samaradorligi xamisha hosildorlik kursatkichlari bilan baholanadi. Hosildorlik sug'orishga, ekish muddatlari , mye'yorlari, o'g'itlash va navning biologik xususiyatlariga bog'g'liq holda o'zgaradigan kursatkichdir.

Bizning tajribalarimizda kuzgi arpa hosildorligi ekish muddatlariga bog'liq holda syezilarli darajada o'zgardi. (3- jadval).

Ekish erta 15.09 da ekilganda 4 qaytariq bo'yicha don hosildorligi 48,8 syentnyerni tashkil qildi. Ekish muddatlarning kyechnikib borishi bilan 1.10 da hosildorlik pasaydi va 51,1 s/ga ni tashkil qildi. Optimal ekish muddati 16.10 ekanligi aniqlandi va bunda hosildorlik 61,7 s/ga bo'ldi. Kuzgi arpa hosildorligidagi bunday farqlar o'simliklarning qishlab chiqishi, hosilni yig'ishtirishgacha saqlanishi va hosil strukturasigi bog'liq.

3 -jadval

Ekish muddatlarining kuzgi arpa Mavlono navining hosildorligiga ta'siri

Ekish muddatlari	Qaytariqlar				O'rtacha
	1	2	3	4	
15 syentyabr	48,0	48,5	51,0	47,9	48.8
1 oktyabr	54,0	54,8	51,7	52,9	53,3
16 oktyabr	60,0	61,2	63,0	62,5	61,7
1 noyabr	52,5	50,9	51,2	49,8	51,1

SHunday qilib, Samarqand viloyati sug'oriladigan yerlar sharoitida kuzga arpaning Mavlono navini 16.10 da ekish eng yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

Hosil tarkibi.

Kuzgi arpa hosildorligi o'simliklarning bo'yi, boshqoq uzunligi, umumiy va mahsuldor tuplanish, boshqodagi donlar soni, 1 ta boshqodagi don vazni va 1 m² dagi boshqoqli poyalar soniga bog'liq holda o'zgaradi.

Biz tajribamizda 0,5 m² dagi o'simliklarni tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni oldik (4- jadval).

O'simlik bo'yi ekish muddatlariga bog'liq holda 91,2 smdan 101,2 smgacha o'zgardi. Ekish muddatlarini kyeichigishi bilan kuzgi arpaning bo'yi paslashib borishi aniqlandi. Erta 15.09 da ekilganda arpaning bo'yi 101,2 sm bo'lsa, kyeich 1.11 da ekilganda o'simlik bo'yi 10 smga kamaydi. Optimal muddat 16.10 da ekilgan paykalchalarda o'simlikning bo'yi 94,6 sm ni tashkil qildi. Arpa bo'yi baland bo'lganda uni yotib qolishi ham kuzatildi.

Boshqoq uzunligi tajribamizda ekish muddatlariga bog'liq holda 8,2 sm dan 6.5 smgacha o'zgardi. Ekish muddatlarining kyeichikishi bilan arpa boshog'ining uzunligi ham kamaydi.

Hosil tarkibining eng muhim kursatkichlaridan biri o'simlikning umumiy va mahsuldor tuplanishi hisoblanadi. Umumiy tuplanish tajribamizda 3,9 dan 2,8 gacha o'zgardi. Eng yuqori umumiy tuplanish 15.09 da ekilgan paykalchalarda, eng past 1.10 da ekilgan o'simliklarda kuzatildi. SHunday qonuniyat mahsuldor tuplanish bo'yicha ham kuzatildi. Mahsuldor tuplanish dyeganda boshqoq hosil qilgan poyalar soni hisoblandi va bu kursatkich 2,4 dan 1,9 gacha o'zgardi.

1 ta boshqodagi donlar soni Mavlono navida 39,2 dan 34,2 donagacha o'zgardi va eng ko'p donlar erta 15.09 da ekilgan o'simliklarda kuzatildi.

1 ta boshqodagi don masasi 1,6 dan 1,2 grammgacha o'zgardi. 1 m² dagi boshqoqlar soni tajribada 443 dan 405 gacha o'zgardi. Eng yuqori boshqoqli poyalar soni 16.10 da ekilgan paykalchalarda aniqlandi.

Ekish muddatlarining Mavlono navining hosil strukturasiga ta'siri

Ekish muddatlari	O'simlik bo'yi, sm	Boshoqning uzunligi, sm	Umumiy tuplanish	mahsuldor tuplanish	1 ta boshoqdagi donlar soni, dona	1 ta boshoqdagi don massasi, gr	1 m2 dagi boshoqlar soni, dona
15 syentyabr	101,2	8,2	3,9	2,4	39,2	1,6	410
1 oktyabr	97,5	7,3	3,5	2,5	37,3	1,4	428
16 oktyabr	94,6	6,9	3,1	2,2	35,5	1,5	443
1 noyabr	91,2	6,5	2,8	1,9	34,2	1,2	405

2.O'zbyekistonda rayonlashtirilgan va kyeng tarqalgan arpa navlari

Mavlonov navi 9209049 O'zbyekistonda donchilik ilmiy tyekshirish instituti (Don ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi)ning syelyeksion navi.

V-27 (K-25376, Bolgariya) x Ta'zim navlari chatishtirilib olingan durugaydan yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan.

Mualliflar: Mamatqulov T, Lukyanova M.V, Aripov YU.A, Amonov A.A, Djumaboyev P.A.

1997 yilda qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarining sug'oriladigan yerlarida kuzgi muddatlarda ekish uchun Davlat ryeyestriga kiritilgan.

Biologik kuzgi. Paralyellum tur xiliga mansub. Boshog'i olti qatorli, to'g'riburchakli, to'q – sariq, qisqa. Boshog qipig'i tor va kuchsiz rivojlangan. Qiltig'i sariq, boshog'iga nisbatan 2-2.5 barobar uzun, o'rtacha dag'allikda. Don och sariq, o'rtacha kattalikda, ellips shaklida, 1000 ta donning vazni 40.4-48.8 g. Sinov yillarida (2004-2005 yil.) o'rtacha don hosildorligi 46.2-56.3 s/ga tyeng bo'lgan.

O'rtapishar, vyegyetasiya davri 195-215 kun. Nav to'kilish va yotib qolishga bardoshli, qishga chidamligi 4.7-5.0 ballga tyeng.

Kasalliklar va zararkunandalarga chidamli.

Tyemur navi. Samarqand qishloq xo'jalik institutini va Samarqand "Don" ilmiy ishlab chiqarish firmasining syelyeksion navi.

Mualliflar: Xodjaqulov T.X, Linchyskiy A.A, Abduraimov D.T, Udachin R.A.

Palladium 90 x HYS 63780/73; Palladium 90 (Antyer x Omar) x HYS 63180/73 (ryentgyenomutant nav elita) navlarini chatishtirib olingan durugay kombinasiyasidan ikki marotaba tanlash yo'li bilan yaratilgan.

Ryepulikamizda 1997 yildan Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarining sug'oriladigan yerlarida kuzgi muddatlarda ekish uchun davlat ryeyestriga kiritilgan.

Duvarak (biologik bahori). Paralyellum turiga mansub. Boshog'i sariq, to'rt qirrali, o'rtacha uzunlikda. Boshog qipig'i kuchsiz rivojlangan, qiltig'i uzun, och sariq, dag'al, sinuvchan. Doni yirik, sariq, cho'zinchoq, 100 ta donning vazni 42,6 g. Sinov yillarda (2000-2004) o'rtacha hosildorligi 41,4-57,8s/ga.

O'rtapishar.vigitasiya davri 198-216 kun. Nav yotib qolishga va to'kilishga bardoshli, qishga chidamligi 4,0-5,0 bal. Navning oziqa boplik xususiyatlari yaxshi: oqsil miqdori 13,3%, kasalliklar, zararkunandalarga chidamli.

Afrosiyob. Samarqand qishloq xo'jalik institutida yaratilgan. 1990 yildan Surxandaryo viloyati sug'oriladigan yerlarida tumanlashtirilgan. Pallidium. Boshog'i to'rt qirrali. 1000 don massasi 32,8 g. O'rta tyezpishar, o'suv davri 192 kun. Uzun DNU o'rtacha hosildorligi 57,2 s/ga bo'lgan.

Marokand. Tur xili nutans. Kuzgi nav. Boshog'i ikki qatorli. 1000 don massasi 40-45 g. Tyezpishar, sovuqqa, kasalliklarga bardoshli. Hosildorligi 60-70 s/ga.

Arpaning Ayqor, Bolg'ali, Karshinskiy, Qizilqo'rg'on, Mavlono, Lalmikor, Nutans 7999, Savrug', Xonaqox, navlari Davlat ryeyestriga kiritilgan.

3. Arpa yetishtirish texnologiyasi

Kuzgi arpa uchun eng yaxshi o'tmishdoshlar – g'o'za, dukkakli don ekinlari, byeda, sabzavot ekinlari. Lalmikorlikda kuzgi arpa toza shudgorga ekilganda eng yuqori hosil olinadi. O'zbyekistonda bahori arpa sug'oriladigan va lalmikor maydonlarda yetishtiriladi. Sug'oriladigan yerlarda toza va qoplama ekin sifatida o'stiriladi. Bahori arpa uchun sug'oriladigan yerlarda eng yaxshi o'tmishdoshlarga g'o'za, qator oralari ishlanadigan ekinlar, dukkakli don, sabzavot ekinlari, kartoshka, qand lavlagi kiradi.

Lalmikorlikda bahori arpa uchun toza, band shudgor, no'xat, maxsar yaxshi o'tmishdoshlardir.

Bahori arpa tuproq muhiti rN –5,5 kam bo'lmagan, unumdor, myexanik tarkibi qumoq tuproqlarda yaxshi o'sadi.

O'zbyekistonda bahori arpaning Unumli arpa, duvarak arpani Tyemur navlari kyeng tarqalgan. Tyemur navi sug'oriladigan yerlarda ekiladi.

O'g'itlashda bir gyektar maydonga sug'oriladigan yerlarda $N_{120-150}$, R_{80-100} , K_{40-60} kg ma'danli o'g'it solish tavsiya etiladi. Ekish bilan gyektariga 10 kg fosforli o'g'it byerish yaxshi natija byeradi. Lalmikorlikda kuzgi arpaning bir gyektariga N_{30} , R_{40} , K_{30} kg solish don hosilini 30-40% ga oshiradi.

Tuproqni ishlash. Sug'oriladigan yerlarda bahori arpa ekiladigan dalalar 25-27 sm chuqurlikda kuzgi shudgor qilinadi. Lalmikorlikda kuzgi shudgor 20-22 sm chuqurlikda o'tkaziladi. SHamol eroziyasiga uchragan maydonlarda tuproq ploskoryezlar bilan ishlansa yaxshi natija byeradi.

Ekishdan oldin otvalli pluglar bilan haydalgan dalalar yer yetilishi bilan BZTS-1,0, BZS-1,0 tishli boronalarida bir yoki ikki izli qilib ko'ndalangiga yoki diagonaliga borona qilinadi. Sizot suvlar yaqin dalalarda 10-12 sm chuqurlikda kultivasiya qilinadi. Kultivatorlardan KPZ-9,7, KPSH-8, KSHU-12 va KPS-4 qo'llaniladi.

Tuproqda nam ko'p bo'lsa, og'ir g'ildirakli traktorlardan foydalanishdan voz kyechish kyerak. Tuproq zichlanishining oldini olish uchun bir nyecha ish jarayonlarini bir yo'la o'tkazish kyerak. Ishlovlar tuproq asosiy ishlanishiga ko'ndalang yoki unga burchak asosida o'tkaziladi.

Ekish. Urug'lar 1 va 2 sinf talablariga javob byerishi hamda fungisidlar bilan ishlanishi talab qilinadi.

Ekish uchun 1-sinf talabalariga javob byeruvchi, 1000 urug' massasi 40 g, o'sish kuchi 80 % kam bo'lmagan urug'lardan foydalaniladi. Urug'lar albatta ekishdan kamida bir oy oldin fungisidlar bilan ishlanadi.

Sug'oriladigan yerlarda kuzgi arpa Samarqand, Jizzax, Toshkyent viloyatlarida oktyabrning ikkinchi o'n kunligi, Qoraqalpog'iston Ryespublikasi, Xorazm viloyatlarida oktyabrning birinchi o'n kunligida, janubiy viloyatlarda oktyabrning oxirgi o'n kunligida ekiladi. Kuzgi arpani maqbul ekish muddatidan erta yoki kyeck ekish o'simliklarni qishda sovuq urishiga, siyraklashishiga, hosilning pasayishiga olib kyeladi.

Lalmikorlikda oktyabr oyining oxirgi o'n kunligida ekish eng maqbul muddat hisoblanadi.

O'zbyekistonda bahori arpa juda erta fyevral oyida, mart oyining boshlanishida, yer yetilishi bilan ekiladi. Ekish muddatini kyeckhtirish hosildorlikning kyeskin pasayishiga olib kyeladi. Ekish chuqurligi 4-6 sm.

Sug'oriladigan yerlarda ekish mye'yori 4–4,5 mln unuvchan urug'/ga. Lalmikorlikda nam bilan ta'minlanganlik bo'yicha mintaqalarda 80-110 kg/ga ekiladi.

Ekish usuli – tor qatorlab (7-8sm), qatorlab, qatorlarni kyesishtirib ekish. Ochiq maydonlarda qatorlarni kyesishtirib ekish usuli yaxshi natija byeradi. Ekish chuqurligi 4-6 sm. Urug'lar nam tuproqqa ekiladi. Tyexnologik izlar qoldirilganda SPR–6, SZ–3,6, SZP–3,6 yoki syeyalka kultivator SZS–2,1, SZS–2,1 syeyalkalaridan foydalaniladi. Izlar 1800 yoki 1400 mm qilib qoldiriladi. Bunda 6-7 va 18-19 ekadigan

apparatlar byerkitiladi. RUM –5 va 1 –RMG–4, NRU–0,5, OPSH–15 mashinalari byemalol yuradigan bo'ladi. SHuning uchun ekish albatta markyerlar bilan o'tkaziladi.

O'g'itlash. Sug'oriladigan sharoitda qo'llanilgan ma'danli o'g'itlarning samaradorligi yuqori bo'ladi. Sug'oriladigan yerlarda azotli, fosforli, kaliyli o'g'itlarni to'la mye'yorda byerish hosildorlikni va hosil sifatini kyeskin oshiradi.

Ekish bilan ta'sir qiluvchi modda hisobida gyektariga 15-20 kg granulalangan supyerfosfat yoki nitrofoska solinadi.

